

## TURK FRAZEOLOGIYASINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Saydullayeva Surayyo Serajiddinovna, Navoiy davlat universiteti  
“Ingliz tilshunosligi” kafedrasi dotsenti v.v.b., (PhD)*

### ETYMOLOGICAL FEATURES OF TURKISH PHRASEOLOGY

*Saydullayeva Surayyo Serajiddinovna, Associate Professor of the  
Department of English Linguistics, Navoi State University, (PhD)*

### ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

### ТУРЕЦКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

*Сайдуллаева Сурайё Сераджиддиновна, доцент кафедры  
английского языкоznания Навоийского государственного  
университета, (PhD)*

**Annotatsiya:** Frazeologik birliklar har bir tilning muhim qismidir va ular milliy ong, madaniyat hamda tarixiy tajribalarni o‘zida aks ettiradi. Xususan, diniy manbalardan olingan iboralar xalqning dunyoqarashi va diniy tasavvurlarining tilga qanday singganligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada turk madaniyatiga xos bo‘lgan frazeologizmlar o‘rganiladi hamda ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** paradigmatica, bevosita va ko‘chma ma’no, frazeologik birliklar, semantik tiplari, iboralar.

**Abstract:** Phraseological units are an important part of each language and reflect national consciousness, culture and historical experience. In particular, expressions taken from religious sources show how the worldview and religious ideas of the people are imprinted in the language. This article studies phraseological units of Koranic origin in the Turkish and Uzbek languages, analyzes their similarities and differences.

**Keywords:** paradigmatics, direct and indirect meaning, phraseological units, semantic types, expressions.

**Аннотация:** Фразеологические единицы являются важной частью каждого языка и отражают национальное сознание, культуру и исторический опыт. В частности, выражения, взятые из религиозных источников, показывают, как мировоззрение и религиозные представления народа запечатлены в языке. В данной статье изучаются фразеологизмы коранического происхождения в турецком и узбекском языках, анализируются их сходства и различия.

**Ключевые слова:** парадигматика, прямое и косвенное значение, фразеологизмы, семантические типы, выражения.

**KIRISH.** Hikmat va xalq ruhi uning maqol va matallarida namoyon bo‘ladi. Muayyan xalqning maqol va matallarini bilish, shu tilni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga, shuningdek, o‘scha xalqning fikrlash tarzi va xarakterini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Turli xalqlarning maqol va matallarini taqqoslash orqali ularning qanday umumiyliliklarga ega ekanligini ko‘rish mumkin, bu esa o‘z navbatida xalqlarning yaqinlashishi va o‘zaro

tushunishini yaxshilashga xizmat qiladi. Xalqlarning boy tarixiy tajribasi, mehnat faoliyati, turmush tarzi va madaniyati bilan bog‘liq tasavvurlar har doim maqol va matallarda aks etgan. Maqol va matallardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalinish nutqqa betakror o‘ziga xoslik va alohida ifodalilik baxsh etadi. Xalq og‘zaki ijodining bir turi sifatida maqol va matallar xalq kuzatuvlari, hayotiy tajriba va donishmandlikni o‘z ichiga oladi[1].



<https://orcid.org/0009-0004-5921-1504>

e-mail:

serajiddinovna@gmail.com

**ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODOLOGIYA.** Maqol va matallar xalqning milliy xarakterini, ularning manfaatlarini, turli holatlarga bo‘lgan munosabatlarini, turmush tarzi va an’analarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Maqol va matallardan to‘g‘ri foydalanish nafaqat o‘sha til sohiblari bilan bevosita muloqot qilishda, balki badiiy matnlarni tarjima qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Turk tilshunosligida frazeologiya mustaqil fan sohasi sifatida faqat so‘nggi o‘n yilliklarda shakllangan bo‘lib, bu D.Aksan va L.S.Uzunning ishlari bilan bog‘liq. Bu jarayondan oldin O.A.Aksoy, Sh.Elchin, S.Emir va boshqa olimlar tomonidan turk tilidan faktik material to‘plash va uni tavsiflash bo‘yicha uzoq yillik izlanishlar olib borilgan[3]. Frazeologiya o‘rganish jarayoni asosan frazeologizmlarning umumiyyatini tafsifi, ularning til tizimidagi o‘rni va ayrim stilistik xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanadi.

Rossiya tilshunosligida turk tilining leksikasi va frazeologiyasini o‘rganish an’analari XX asrning 50-yillariga borib taqaladi. Bu davrda S.S.Mayzel, L.N.Dolganov, R.A.Aganin, V.E.Polyakova, E.V.Mamuliya kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan[3]. Ushbu an’ana 90-yillarda qayta jonlanib, turk tilining frazeologiyasini boshqa tillar bilan taqqoslashga asoslangan izlanishlar davom ettirildi.

Hozirgi vaqtida turk frazeologiyasining tizimli strukturaviy paradigmata nuqtayi nazaridan ba’zi muammolarni hal qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.** Leksik tizim o‘ziga xos birlik – frazeologizmga ega bo‘lib, u so‘zdan, eng avvalo, o‘zining semantik bog‘langan tuzilishi bilan farqlanadi. Frazeologizmlar nutqda yangi hosil qilinmaydi, balki belgilangan semantik struktura va aniq leksik-grammatik tarkibda qayta ishlanadi.

Turk lingvistlarining mavjud tafsiflarida frazeologizmlar leksik tizimning tarkibiy qismi sifatida hali ham tasniflash muammo sifatida ko‘riladi, ammo ularning ichki tuzilishi va tarkibiy qismlarining semantik o‘zaro ta’siri hali to‘liq o‘rganilmagan. Frazeologizmlarni aniqlash

mezonlari hali ham noaniq bo‘lib, ularni erkin va bog‘langan so‘z birikmalari orasida oraliq o‘ringa qo‘yish qiyinchilik tug‘diradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda frazeologizmlarning turli semantik tiplari ajratilmoqda. Masalan, aniq belgilangan ma’noga ega bo‘lgan idiomalar (masalan, *kaçın kurası* – tajribali odam, so‘zma-so‘z ma’nosи: “nechanchi marotaba qur’a”); *ocağına düşmek* – yordam so‘rash (so‘zma-so‘z: “o‘chog‘iga tushmoq”). Shuningdek, mashhur iboralar, maqollar va taniqli matnlardan olingan iqtiboslar ham frazeologizm sifatida qaraladi, lekin ularning madaniy-tarixiy kelib chiqishi va funksional xususiyatlari alohida baholanadi.

Frazeologizmlarning semantik tuzilishi bo‘yicha ba’zilari erkin va bog‘langan so‘z birikmalari orasida oraliq o‘rinni egallaydi. Frazeologizm – bu ikkilamchi nomlash mahsuli bo‘lib, tarkibiy qismlarining sintagmatik o‘zaro ta’siri natijasida yangi ma’no hosil qiladi[4]. Frazeologizmlarning universal xususiyatlariga semantik o‘zgarishi, barqarorlik va takroran ishlatilishi kiradi.

**Turk maqollari esa milliy g‘urur, tarixiy an’analarga sodiqlik va oila ahamiyatiga urg‘u beradi.**

1. **“Vatan sevgisi imondandır”** – Vatanni sevish imonning bir qismidir.
2. **“Düşmanını küçük görme, sonra büyümüş görürsün”** – Dushmanni kichik sanama, aks holda u kattalashadi.
3. **“Kan bağı, can bağlıdır”** – Qon aloqasi jon aloqasi bilan barobardir.
4. **“Bayrak inmez, ezan dinmez”** – Bayroq tushmaydi, azon tinmaydi (Milliy va diniy qadriyatlarga sodiqlik).
5. **“Her Türk asker doğar”** – Har bir turk askar bo‘lib tug‘iladi.

**Tarixiy an’analarga sodiqlikni ta’kidlovchi maqollar:**

1. **“Atasını tanımayan millet yetimdir”** – O‘z ajdodini tanimagan xalq yetimdir.
2. **“Eski çamlar bardak oldu”** – Eski qadriyatlar yo‘qolib ketdi.
3. **“Kendi düşen ağlamaz”** – O‘ziga o‘zi zarar yetkazgan kishi nolimasin.

4. “*Maziyi bilmeyen, geleceğe gidemez*” – O’tmishini bilmagan kelajakka yo’l topa olmaydi.
  5. “*Yığıdı öldür, hakkını yeme*” – Qahramonni o’ldir, lekin uning haqlarini inkor qilma.
- Oilaning ahamiyatini ko’rsatadigan maqollar:**
1. “*Ana gibi yar, vatan gibi diyar olmaz*” – Ona kabi yor, vatan kabi diyor bo’lmaydi.
  2. “*Elden gelen ögün olmaz, o da vaktinde bulunmaz*” – Begonadan kelgan narsa hech qachon o’z vaqtida bo’lmaydi (Oilangga tayan).
  3. “*Ev alma, komşu al*” – Uy sotib olma, yaxshi qo’shni tanla.
  4. “*Ağaç yaşken eğilir*” – Daraxt yoshligida egiladi (Farzand tarbiyasi muhim).
  5. “*Kızını dövmeyen, dizini döver*” – Qizini urmagan (tarbiya qilmagan) oxirida pushaymon bo’ladi.

Bu maqollar turk xalqining milliy g’ururga sodiqligi, ajdodlarning qadriyatlarini hurmat qilish va oilani muqaddas bilishini aks ettiradi. Turk lingvistikasida frazeologizmlarni tasniflashda grammatik struktura asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Sh.Elchin turk adabiy tilidagi frazeologizmlarni grammatic shakliga ko’ra 11 guruha ajratgan[3].

Masalan:

1. Infinitiv guruhi: *haber almak* (“xabar olish”, so’zma-so’z: “xabarni olish”);
2. Muayyan zamon shaklidagi fe’lli frazeologizmlar: *kaş yaparken göz çıkardı* (“aybsiz xizmat”, so’zma-so’z: “qoshni yashashda ko’zni chiqarish”);
3. Ot va fe’l shakllari bilan bog’langan frazeologizmlar: *anasından emdiği süt burnundan gelmek* (“katta qiyinchilikni boshdan kechirish”);
4. Qat’iy shaklda ishlatiladigan frazeologizmlar: *vur patlasın çal oynasin* (“hayotni zavqlanib o’tkazish”);
5. Fe’l tarkibiga ega bo’lmagan frazeologizmlar: *kel başa şimşir tarak* (“umuman foydasiz narsa”, so’zma-so’z: “kal boshga taroq”);
6. Egalik qo’shimchali ot frazeologizmlari: *eli boş* (“qo’li bo’sh”, ya’ni “hech narsasiz”);
7. Takroriy frazeologizmlar: *çoluk çocuk* (“bolalar, yoshlar”);
8. Asosiy so’z takrorlangan frazeologizmlar: *boşu boşuna* (“bekorga, befoyda”);

9. Qofiyali frazeologizmlar: *azıcık aşım, kaygısız başım* (“kam bilan qanoatlanish”);
10. Salbiy fe’lga ega bo’lgan frazeologizmlar: *ağzını bıçak açmamak* (“og’iz ochmaslik”).

D.Aksan frazeologik birliliklarni ikkita asosiy guruha bo’lgan: [2]

1. Erkin so’z birikmalaridan kelib chiqqan frazeologizmlar, masalan: *adam sarrafi* (“inson tabiatini yaxshi tushunadigan kishi”);
2. Strukturaviy prototipga ega bo’lmagan frazeologizmlar, masalan: *dam üstünde saksağan vur beline kazmayı* (“mutlaq bema’nilik”).

### XULOSA VA TAKLIFLAR.

Turk frazeologiyasi stilistik jihatdan boy bo’lib, ekspressiv konnotatsiyalarga ega. Frazeologik birliliklar nutqda tayyor holatda ishlatiladi va ikki rejani o’zida mujassam etadi: bevosita va ko’chma ma’no. Bu ikki reja til egasi tomonidan yaxlit bir tizim sifatida idrok etiladi.

Frazeologizmlarning til tizimidagi o’rni va xususiyatlarini yanada aniqroq o’rganish uchun ularning badiiy proza va publisistikada qo’llanishini tahlil qilish muhim ahmiyatga ega. Bu esa turk frazeologiyasining ichki tuzilishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Дубровин М.И. Английские и русские пословицы и поговорки. -М.: Просвещение, 1993. -С. 169.
2. Aksan D., Journal of the Ottoman and Turkish Studies Association, Volume 9, Number 2, Fall 2022. -Pp. 376-378.
3. Xolibekova O.K. Zoonim va fitonim komponentli frazeologik birliliklarning semantik-struktur va lingvomadaniy talqini: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PHD) ....diss. – Samarqand., 2023. -B. 95.
4. G’aniyeva Sh. O’zbek frazeologizmlarining struktur-semantik tadqiqi. –T.: Fan, 2013. -B.86.
5. Mieder W. Jan Arnold Brunvand (ed.): American folklore. An encyclopedia, 1996. -P. 1253.
6. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.